




AVTOMOBIL YO'LLARIDAGI SUN'IY INSHOATLAR

Izzatullayev Shahzod Sobirjon o'g'li

Termiz muhandislik-texnologiya
instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7096965>

Avtomobil yo'llarida suv o'tkazuvchi quvurlar, ko'priklar, estakadalar, yo'lo'tkazgichlar, tonellar, tirgak va himoya devorlari quriladi. Bu inshootlardan suv o'tkazuvchi quvurlar va kichik ko'priklar eng ko'p tarqalgan. Yo'l poyi orqali toshadigan suvlarni o'tkazish uchun inshoot – lotoklar kam tarqalgan.



36-rasm. Avtomobil yo'llaridagi sun'iy inshootlar:

a – harakat ustidan bo'lgan to'sinli ko'prik; b – ochiq fermali ko'prik (harakat pastdan); v – arkali ko'prik; g - arka-konsolli ko'prik; d – ramali ko'prik; e – osma ko'prik; j – aralashgan tizimli ko'prik; z – suvo'tkazuvchi quvurlar; i – ko'priqli o'tish sxemasi; 1 – ko'priikka tutashma; 2 – oraliq qurilma; 3 - tirgak; 4 -tayanch; 5 - ko'prik; 6 –oqimni yo'naltiruvchi damba; 7 – izga soluvchi inshoot.






Suv o'tkazuvchi quvurlar va ularning elementlari

Suv o'tkazuvchi quvurlar oddiy suv o'tkazuvchi inshootlar bo'lib, kam hajmdagi suvlarni o'tkazishga mo'ljallangan. Suv o'tkazuvchi quvurlar doiraviy va to'g'ri to'rtburchakli kesimlarda 0,75 m dan kam bo'lmagan o'lchamdagi tuynukda, bir qancha quvurlardan iborat ko'p tuynukli bo'lishi mumkin. Doiraviy suv o'tkazuvchi quvur quyidagi elementlardan tashkil topadi: poydevor, quvurga suvni bir ravonda kirishini va undan chiqishini ta'minlovchi va ko'tarma yon bag'rini qo'llovchi asosiy zvenolar va tuynuklar.



37-rasm. Avtomobil yo'lidagi suv o'tkazuvchi quvur



38-rasm. Quvur sxemasi:



1 - kallak, 2 – quvur zvenosi, 3 - qum-shag‘alli yostiqla, 4 – tuproq bilan to‘ldirilgan

Uncha katta bo‘lmagan doimiy va asosan davriy ochiq suv oqimlarini kesib o‘tishda temir yo‘l va avtomobil yo‘llari tarmog‘ida quriladigan quvurlar soni juda ko‘p, biroq ulardan har birining qiymati nisbatan kam va shuning uchun ularni qurish uchun ketadigan jami harajatlar uncha ko‘p emas. Sun‘iy inshootlar toifasiga kiradigan bunday inshootlarni joylashtirish hamma vaqt yo‘lning o‘q chizig‘ini belgilashga bo‘ysindiriladi, bunga sabab shuki, har qaysi quvur uchun joyda eng yaxshi o‘rnini tanlash yo‘lning ancha uzayishiga, uning qurilishining umumiy qimmatlashuviga va yuk tashish harajatlarining ortishiga olib kelishi mumkin.

Quvurning joylashuvini yo‘lning umumiy belgilanishiga bo‘ysindirgan holda, shuningdek, suvni o‘tkazish sharoiti bo‘yicha etarlicha qulay bo‘lmagan joylarda hamma vaqt oqimni ancha va nisbatan arzon boshqarish, hatto zarur yo‘nalishda yaxlit sun‘iy o‘zan qurish imkoniyati borligi hisobga olinadi.

Suv o‘tkazuvchi quvurlardan foydalanishda quyidagi nuqsonlar yuzaga keladi:



39-rasm. Suv o‘tkazuvchi quvurlarni loyqa bosishi, o‘simlik qatlamini buzilishi, ko‘tarma yon bag‘irlari eroziyasi, suv o‘tkazuvchi quvurlardagi quvur o‘tkazgichlar,





suvo'tkazuvchi quvurni mustaxkamligini buzilishi, o'zan yuvilishi va jarlik hosil bo'lishi

Xulosa

Quvurlar bugungi kunda eng muammoli masalalardan biri hisoblanib, ularning tez yemirilishi muammolarning asosiy sababidir. Bugungi kunda mustaxkam quvurlarni yaratish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Quvurlarni yasashda eko maxsulotlardan foydalanish ham sifat ham tannarx jixatidan quoay va samaradordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. uz.m.wikipedia.org

